



---

*hokimligi  
mактабгача ва мактаб та'лими  
бoshqarmasi*

---

*mактабгача ва  
мактаб та'лими bo'limi tasarrufidagi  
—umumiy o'rta ta'lim mакtabi  
matematika fani o'qituvchisi  
ning*

*20\_\_-20\_\_-o'quv yili  
8-9-sinflar iqtidorli o'quvchilar uchun  
“YOSH MATEMATIK”*

**TO'GARAK  
HUJJATLARI**

**To‘garak a‘zolari haqida ma’lumot**

<b>No</b>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug‘ilgan sanasi</b>	<b>Sinfi</b>	<b>Manzili (to‘liq)</b>	<b>Ota-onasi (Ismi sharifi)</b>	<b>Telefon (uy yoki mobil)</b>	<b>Izoh</b>
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							
15.							
16.							

17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

*O'tkazilgan xona \_\_\_\_\_*

“\_\_\_\_\_” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

“\_\_\_\_\_” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

## To 'garak rahbari \_\_\_\_\_

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yiliga iqtidorli o‘quvchilar uchun matematika fanidan “Yosh matematik” nomli  
to‘garagining  
ISH REJASI**

Nº	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Mashg‘ulot o‘tkazish muddati	Mashg‘ulot o‘tkazilgan sana
1.	Kvadratik funksiyaning ta'rifi	1		
2.	$y = x^2$ funksiya	1		
3.	Murakkabroq masalalar	1		
4.	$y = ax^2$ funksiya	1		
5.	Masalalar yechish	1		
6.	Murakkabroq masalalar	1		
7.	$y = ax^2 + bx + c$ funksiya	1		
8.	Masalalar yechish	1		
9.	Olimpiada masalalari	1		
10.	Masalalar yechish	1		
11.	Kvadrat funksiyaning grafigini yasash	1		
12.	Masalalar yechish	1		
13.	Masalalar yechish	1		
14.	Butun ko‘rsatkichli daraja va uning xossalari	1		
15.	Natural ko‘rsatkichli darajaning arifmetik ildizi	1		
16.	Ratsional ko‘rsatkichli daraja.	1		
17.	Funksiyaning aniqlanish sohasi	1		
18.	Funksiyaning o‘sishi va kamayishi	1		
19.	Funksiyaning juft va toqligi	1		
20.	Funksiya	1		
21.	Daraja qatnashgan tenglama va tengsizliklar	1		
22.	Nuqtani koordinata boshi atrofida burish	1		
23.	Sinus, kosinus, tangens va kotangensning ta'rifi	1		
24.	Masalalar yechish	1		
25.	Sinus, kosinus, tangens va kotangensning	1		
26.	Masalalar yechish	1		
27.	Ayni bir burchakning sinus, kosinusi, tangensi va kotangensi orasidagi munosabatlар	1		
28.	Trigonometrik ayniyatlar	1		
29.	$\alpha$ va $-\alpha$ burchakning sinus, kosinusi, tangens va kotangensi	1		
30.	Qo‘shish formulalari	1		
31.	Kvadrat funksiya	1		
32.	Ratsional ko‘rsatkichli daraja	1		
33.	Darajali funksiya	1		
34.	Trigonometriya elementlari	1		

MMIBDO‘: \_\_\_\_\_

To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

Sana: " " 20 -yil.Sinflar: \_\_\_.To‘garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mashg‘ulotning mavzusi:** Kvadratik funksiyaning ta'rifi.

**Mashg‘ulotning maqsadlari:**

- a) **ta'limiy maqsadi** – kvadrat funksiya xossalari o‘rgatish;
- b) **tarbiyaviy maqsadi** – o‘zaro hurmat, intizom, estetik tarbiya;
- c) **rivojlantiruvchi maqsadi** – o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

**Mashg‘ulotda foydalaniadigan metodlar:** an'anaviy;

**Mashg‘ulotda foydalaniadigan jihozlar:** 9-sinf mashg‘ulotligi, ko`rgazmali va didaktik

matriallar;

- Tashkiliy qism:**
- a) salomlashish;
  - b) o‘quvchilar davomadini aniqlash;
  - c) xonani ozodaligini nazorat qilish;


**I.O`tilgan mavzuni takrorlash  
(mustahkamlash):**

**I.O`tilgan mavzuni takrorlash  
(mustahkamlash);**

Hisoblang.

$$1) 8 \cdot \sqrt{169} - 7 \cdot \sqrt{121} = 8 \cdot 13 - 7 \cdot 11 = 104 - 77 = 27,$$

$$2) \sqrt{65^2 - 63^2} = \sqrt{(65 - 63)(65 + 63)} = \sqrt{2 \cdot 128} = \sqrt{256} = 16,$$



## II.Yangi mavzuni tushuntirish.

**Kvadrat funksiyaning ta`rifi.**

8-sinfda  $y = kx + b$  chiziqli funksiya, uning xossalari o`rganilgan, k va b ning turli qiymatlarida bu funksiya grafigi chizilgan edi.Iqtisodiyotda, texnikaning turli sohalarida chiziqli funksayalar bilan bir qatorda kvadrat funksiyalar ham uchraydi.Misollarga murojaat qilaylik;

1) Tomoni  $x$  bo`lgan kvadratning yuzi  $y = x^2$  formula;

2) radiusi  $x$  bo`lgan doiranining yuzi  $y = \pi x^2$  formula;

3) qirrasining uzunligi  $x$  bo`lgan kubning sirti yuzi  $y = 6x^2$  formula bo`yicha hisoblanadi.

Qaralgan bu misollar  $y = ax^2 + bx + c$  ko`rinishdagi funksiyaning xususiy hollaridir.

Chindan ham: 1-misolda  $a = 1, b = c = 0$ ; 2-misolda  $a = \pi, b = c = 0$ ; 3-misolda esa  $a = 6, b = c = 0$ . 1-3-misollarda o`zgaruvchilar  $x$  va  $y$  harflari bilan belgilangan.

Ta`rif.  $y = ax^2 + bx + c$  funksiya kvadrat funksiya deyiladi, bunda  $a, b$  va  $c$ - berilgan haqiqiy sonlar,  $a \neq 0$ ,  $x$ - haqiqiy o`zgaruvchi.

Quyidagi funksiyalar kvadrat funksiyaga misol bo`la oladi:

$$1) \ y = x^2$$

$$2) \ y = 3x^2$$

$$3) \ y = \frac{1}{2}x^2$$

$$4) \ y = -4x^2$$

$$5) \ y = x^2 - 4x$$

$$6) \ y = -2x^2 + x$$

Argument  $x$ - ixtiyoriy qiymatni qabul qilishi mumkin. Demak, kvadrat funksianing aniqlanish sohasi barcha haqiqiy sonlar to`plami  $R = (-\infty, \infty)$  dan iborat.

### III.Yangi mavzuni mustahkamlash;

**1-masala.**  $x = -1, x = 0, x = 2$  bo`lganda  $y(x) = x^2 + x - 6$  funksianing qiymatini toping.

$$y(-1) = (-1)^2 + (-1) - 6 = -6$$

$$y(0) = 0^2 + 0 - 6 = -6$$

$$y(2) = 2^2 + 2 - 6 = 6 - 6 = 0$$

**2-masala.**  $x$  ning qanday qiymatlarida  $y = x^2 - 5x + 6$  kvadrat funksiya:

1) 2 ga; 2) 12 ga; 3) 20 ga; 4) 0 ga teng bo`ladi?

1) Masala shartiga ko`ra,  $x^2 - 5x + 6 = 2$ , bundan  $x^2 - 5x - 6 = 0$ . Bunday tenglamani yechib,

uning ildizlarini topishni 8-sinfdan bilasiz.  $x_1 = 1$  va  $x_2 = 4$  sonlar bu tenglamaning ildizlaridir. Shunday qilib,  $y(1) = 2$  va  $y(4) = 2$ .

2) Shartga ko`ra  $x^2 - 5x + 6 = 12$ , bundan  $x^2 - 5x - 6 = 0$ . Tenglamaning ildizlari  $x_1 = -1$ ,  $x_2 = 6$  ekanini mustaqil toping.

Demak,  $y(-1) = y(6) = 12$ .

3)  $x^2 - 5x + 6 = 20$ ,  $x^2 - 5x - 14 = 0$ ,  $x_1 = -2$ ,  $x_2 = 7$ .  $y(-2) = y(7) = 20$

4)  $x^2 - 5x + 6 = 0$ , bundan  $x_1 = 2$ ,  $x_2 = 3$ .

Demak,  $y(2) = 0$ ,  $y(3) = 0$ .  $x$  ning  $x = 2$ ,  $x = 3$  qiymatlarida kvadrat funksianing qiymati 0 bo`ladi.  $x$  ning kvadrat funksiyani nolga aylantiradigan qiymatlari kvadrat funksianing nollarini deyiladi.

**3-masala.**  $y = 3x^2 - 15x$  kvadrat funksianing nollarini toping.

$3x^2 - 15x = 0$  tenglamani yechib,  $x_1 = 0$ ,  $x_2 = 5$  ekanini topamiz.

### IV. O`quvchilarini baholash;

Sana: " " 20 -yil.Sinflar: \_\_\_.To'garak rahbari: \_\_\_\_\_

Mashg'ulotning mavzusi:  $y = x^2$  funksiya.

Mashg'ulotning maqsadlari:

- ta'limiy maqsadi** – kvadrat funksiyaning xususiy hollarini o'rgatish;
- tarbiyaviy maqsadi** – o'zaro hurmat, intizom, estetik tarbiya;
- rivojlantiruvchi maqsadi** – o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish.

**Mashg'ulotda foydalaniladigan metodlar:** an'anaviy;

**Mashg'ulotda foydalaniladigan jihozlar:** 9-sinf mashg'ulotligi, ko'rgazmali va didaktik materiallar;

- Tashkiliy qism:**
- a) salomlashish;
  - b) o'quvchilar davomadini aniqlash;
  - c) xonani ozodaligini nazorat qilish;
- I.O`tilgan mavzuni takrorlash**

(mustahkamlash):

Savollarga javob bering.Topshiriqni bajaring.

- Kvadrat funksiya deb qanday funksiyaga aytildi? Misollar keltiring.
- Kvadrat funksiyaning sohasi qanday to'plam bo'ladi.
- Kvadrat funksiyaning nollari nima? Misollar keltiring.
- Kvadrat funksiya bilan kvadrat tenglanaming qanday farqi bor?
- Funksiyalardan qaysilari kvadrat funksiya?

- a)  $y = x^2 - 12x + 35$  ;      b)  $y = 2x^2 + 3x + 1$  ;
- d)  $y = x^3 - 4x^2 + x$  ;      e)  $y = 5x + 7$ .

javob: a)  $y = x^2 - 12x + 35$  ;      b)  $y = 2x^2 + 3x + 1$  ;

**II.Yangi mavzuni tushuntirish:  $y = x^2$  funksiya.**

$y = ax^2 + bx + c$  kvadrat funksiyada  $a = 1$ ,  $b = c = 0$  deyilsa,  $y = x^2$  funksiyani hosil qilamiz.


$y = x^2$  funksiya grafigini yasaylik.Koordinata tekisligida funksiya grafigiga tegishli bir nechta ( $x_0, x_0^2$ ) nuqtalarini yasab, ularni silliq egri chiziq bilan tutashtiramiz.Natijada  $y = x^2$  funksiya grafigini olamiz.1-rasmdagi grafik ushbu jadval bo'yicha yasalgan:

$x$	-3	-2	-1	0	1	2	3
$y = x^2$	9	4	1	0	1	4	9

$y = x^2$  funksiyaning grafigi parabola deyiladi.

$y = x^2$  funksiyaning xossalarni jadval ko'rinishida beraylik:

Grafikning xususiyatlari	Funksiyaning xossalari
Grafik koordinata boshida $Ox$ o'qqa urinadi. $O(0;0)$ nuqta grafikning eng pastki nuqtasidir.	a) $x = 0$ da $y = 0$ da teng. b) $x \neq 0$ bo'lganda, $y > 0$ . d) $x = 0$ da funksiya eng kichik qiymatga erishadi.
Parabolaning tarmoqlari yuqoriga yo'nalgan va cheksiz davom etadi.Parabola $Ox$ o'qdan yuqorida joylashgan va $Ox$ ga parallel ixtiyorli to'g'ri chiziqni kesadi.	Ixtiyorli nomanfiy son funksiyaning qiymati bo'la oladi.Funksiyaning qiymatlar sohasi $y \geq 0$ , ya'ni $[0; \infty)$ to'plamdan iborat.
Grafik $Oy$ o'qqa nisbatan simmetrik.Ordinata o'qi parabolaning	Argumentning qarama-qarshi



<p>simmetriya o‘qi.Parabolaning o‘z simmetriya o‘qi bilan kesishish nuqtasi parabolaning uchi deyiladi. <math>O(0;0)</math> nuqta <math>y = x^2</math> funksiya grafigi-parabolaning uchi.</p> <p>a) Grafik <math>x \leq 0</math> oraliqda “tepa” dan pastga ketadi.Grafikda yurayotgan jism grafik bo‘ylab pastga tushadi;      b) <math>x \geq 0</math> oraliqda grafik yuqoriga ko‘tariladi.Grafikda yurayotgan jism grafik bo‘ylab yuqoriga ko‘tariladi.</p>	<p>qiymatlarida <math>y = x^2</math> funksiyaning teng qiymatlari mos keladi: <math>(-x)^2 = x^2</math>.</p> <p>a) <math>x \geq 0</math> bo‘lsa, <math>x</math> ning katta qiymatiga funksiyaning katta qiymati mos keladi.Masalan, <math>4 &gt; 3</math> dan <math>y(4) &gt; y(3)</math> kelib chiqadi.  <math>y = x^2</math> funksiya <math>x \geq 0</math> oraliqda o‘suvchi deyiladi. b) <math>x \leq 0</math> da esa <math>x</math> ning katta qiymatiga funksiyaning kichik qiymati mos keladi: <math>-5 &lt; -3</math>, <math>y(-3) &lt; y(-5)</math>. <math>y = x^2</math> funksiya <math>x \leq 0</math> oraliqda kamayuvchi deyiladi.</p>
--	---

### III.Yangi mavzuni mustahkamlash;

Masala.  $y = x^2$  parabolaning: 1)  $y = 4$ , 2)  $y = 5x - 6$  to‘g‘ri chiziq bilan kesishish nuqtasining koordinatalarini toping.

1)Kesishish nuqtalari  $\begin{cases} y = x^2 \\ y = 4 \end{cases}$  sistemaning yechimlari bo‘ladi.  $x^2 = 4$  tenglamani yechib

topamiz:  $x_1 = -2$ ,  $x_2 = 2$ . Demak,  $y = x^2$  parabola va  $y = 4$  to‘g‘ri chiziq  $(-2;4)$  hamda  $(2;4)$  nuqtalarda kesishadi.

Javob:  $(-2;4)$  va  $(2;4)$ .

### IV. O`quvchilarini baholash;

Maktab MMIBDO‘ \_\_\_\_\_ sana \_\_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ yil

Sana: " " 20 -yil.Sinflar: \_\_\_.To'garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mashg'ulotning mavzusi:** Murakkabroq masalalar.

**Mashg'ulotning maqsadlari:**

- a) ta'limiy maqsadi – kvadrat funksiyaning xususiy hollarini o'rgatish;
- b) tarbiyaviy maqsadi – o'zaro hurmat, intizom, estetik tarbiya;
- c) rivojlantiruvchi maqsadi – o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish.

**Mashg'ulotda foydalaniladigan metodlar:** an'anaviy;

**Mashg'ulotda foydalaniladigan jihozlar:** 9-sinf mashg'ulotligi, ko'rgazmali va didaktik materiallar;

**Tashkiliy qism:**

- a) salomlashish;
- b) o'quvchilar davomadini aniqlash;
- c) xonani ozodaligini nazorat qilish;

**I.O`tilgan mavzuni takrorlash (mustahkamlash):**

**1.** Savollarga javob bering. Topshiriqni bajaring:

- 1)  $y = x^2$  funksiyaning grafigi nima deb ataladi?
- 2) Parabola qanday chiziq? Uni Chizish bosqichini aiting. Parabolani chizib ko'rsating.
- 3)  $y = x^2$  funksiya xossalarining grafigiga qarab aiting.
- 4) Parabolaning simmetriya o'qi nima? Uchi nima?  $y = x^2$  parabola misolida tushuntiring.
- 5) Qaysi oraliqda  $y = x^2$  funksiya o'suvchi? Qaysi oraliqda kamayuvchi?

**II.Yangi mavzuni tushuntirish.**

**2.** (Og'zaki.) Nuqtalardan qaysilari  $y = x^2$  parabola grafigiga tegishli? Qaysilari tegishli emas? Nima uchun?

$A(-3;9); B(-2;4); C(10;100); D(10;-100); E(-2;-4); F(1;-1); K(4;16); L(-4;16); M(2;8)$ .

**3.**  $y = x^2$  funksiya grafigiga  $A(-2;4); B(-3;9); C(\sqrt{2};2); D(-1;1)$ ; nuqtalarga Oy o'qiga nisbatan simmetrik bo'lgan nuqtalarni toping.

$E(2;4); F(3;9); M(-\sqrt{2};2); N(1;1)$ .


- |                                  |                                 |
|----------------------------------|---------------------------------|
| <b>4.1)</b> $x = 2$ va $x = 1$ ; | <b>3)</b> $x = -1$ va $x = 2$ ; |
| <b>2)</b> $x = -3$ va $x = 3$ ;  | <b>4)</b> $x = -3,5$ va $x = 3$ |

bo'lsa,  $y = x^2$  funksiyaning ularga mos qiymatlarini taqqoslang.

- 1)  $y(2) = 4$ ,  $y(1) = 1$ ,  $y(2) > y(1)$ ;
- 2)  $y(-3) = 9$ ,  $y(3) = 9$ ,  $y(-3) = y(3)$ ;
- 3)  $y(-1) = 1$ ,  $y(2) = 4$ ,  $y(-1) < y(2)$ ;
- 4)  $y(-3,5) = 12,25$ ,  $y(3) = 9$ ,  $y(-3,5) > y(3)$ ;

**5.**  $y = x^2$  parabolaning:

- |                      |                               |                                |
|----------------------|-------------------------------|--------------------------------|
| <b>1)</b> $y = 16$ ; | <b>5)</b> $y = 4x$ ;          | <b>9)</b> $y = -\frac{x}{3}$ ; |
| <b>2)</b> $y = 8$ ;  | <b>6)</b> $y = -2x$ ;         | <b>10)</b> $y = 0$ ;           |
| <b>3)</b> $y = 9$ ;  | <b>7)</b> $y = \frac{x}{2}$ ; | <b>11)</b> $y = \sqrt{2}x$ ;   |



$$4) y = 36; \quad 8) y = \frac{1}{4}; \quad 12) -\sqrt{3}x$$

to‘g‘ri chiziq bilan kesishish nuqtalarining koordinatalarini toping.

- 1)  $x^2 = 16$ ;  $x_1 = 4$ ;  $x_2 = -4$ ;  $(-4;16)$ ;  $(4;16)$ ;
- 2)  $x^2 = 8$ ;  $x_1 = 2\sqrt{2}$ ;  $x_2 = -2\sqrt{2}$ ;  $(2\sqrt{2};8)$ ;  $(-2\sqrt{2};8)$ ;
- 3)  $x^2 = 9$ ;  $x_1 = -3$ ;  $x_2 = 3$ ;  $(3;9)$ ;  $(-3;9)$ ;
- 4)  $x^2 = 36$ ;  $x_1 = 6$ ;  $x_2 = -6$ ;  $(-6;36)$ ;  $(6;36)$ ;
- 5)  $x^2 = 4x$ ;  $x^2 - 4x = 0$ ;  $x_1 = 0$ ;  $x_2 = 4$ ;  $(0;0)$ ;  $(4;16)$ ;

### III. Yangi mavzuni mustahkamlash;

6. Nima uchun  $y = x^2$  parabola: 1)  $y = -1$ ; 2)  $y = -3$ ; 3)  $y = -4$ ; 4)  $y = -2$ ; yo‘g‘ri chiziq bilan kesishmaydi?

Sababi  $y = x^2$  funksiyaning grafigi  $Ox$  o‘qidan yuqorida, ya’ni I va II choraklarda joylashgan. Bu funksiyalarning grafiklari esa  $Ox$  o‘qidan pastda, III va IV choraklarda yotadi.

7.  $y = x^2$  funksiya quyida berilgan oraliqda o‘sadi, degan tasdiq to‘g‘rimi? Sababini tushuntiring.

- 1)  $[0;12]$ ;      5)  $[-5;1]$
- 2)  $(0;3)$ ;      6)  $[-1;2]$
- 3)  $x \geq 5$ ;      7)  $(-10;0)$
- 4)  $x > 0$ ;      8)  $x < 1$ ;

### IV. O`quvchilarini baholash;

Maktab MMIBDO‘ \_\_\_\_\_ sana \_\_\_\_\_ 20 \_\_\_\_ yil

*veb-saytimiz: Zokirjon.com  
Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**Algebra fanidan 8-9-sinf iqtidorli o‘quvchilarga 34 soatli to‘garakni to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.**

**Narxi: 20 ming so‘m**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To‘lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**